

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATINI REJALASHTIRISH TUSHUNCHASI VA MAZMUN MOHIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7810392>

Isroilov Doston Rustam o'g'li

Òzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda shakllangan huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimi, ya'ni huquqbuzarliklar profilaktikasi siyosatiga, uning mazmun-mohiyatini o'zida aks ettiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, ularning hayotda amalga oshirilishi va qo'llanilishini ta'minlovchi organ va muassasalar faoliyatiga bevosita o'zbek xalqining yuksak ma'naviyatini o'zida aks ettiruvchi insoniy tuyg'ular, buyuk ajdodlar meroslari, oila qadriyatlari haqidagi g'oyalar singdirilgan*

Kalit so'zlar: *Ichki ishlar, huquqiy tartib, rejalashtirish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, inspektorlar, tashkiliy-taktik, uslubiy.*

Abstract: *In this article, the national crime prevention system formed in Uzbekistan, that is, the crime prevention policy, the regulatory legal documents that reflect its essence, as well as the activities of the bodies and institutions that ensure their implementation and application in life. Human feelings reflecting the high spirituality of the Uzbek people, the heritage of great ancestors, and ideas about family values are inculcated.*

Keywords: *Internal affairs, legal order, planning, crime prevention, inspectors, organizational-tactical, methodical.*

Абстрактный: *В данной статье сформирована национальная система профилактики правонарушений в Узбекистане, то есть политика предупреждения правонарушений, нормативные правовые документы, отражающие ее сущность, а также деятельность органов и учреждений, обеспечивающих их реализацию и применение в жизни. прививаются чувства, отражающие высокую духовность узбекского народа, наследие великих предков, представления о семейных ценностях.*

Ключевые слова: *Внутренние дела, правопорядок, планирование, профилактика правонарушений, следователи, организационно-тактические, методические.*

Bugungi kunda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyat, davlat va shaxsning qonuniy manfaatlarini har qanday ko'rinishdagi tahdidlardan himoya qilish, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, millatlararo totuvlikni hamda barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir. " O'zbekistonimizda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko'z qorachig'idek saqlash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo'lib qolishi darkor "

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalashtirish “ – tushunchasini yoritishimizdan avval biz, profilaktika, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi kabi tushunchalarni, huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalarini hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatini huquqbuzarliklar profilaktikasini obyektlarini aniqlab olishimiz lozim. Chunki ushbu iboralar nafaqat huquq nazariyasi va amaliyotida, balki boshqa fan sohalarida ham qo'llaniladi. “Huquqbuzarlik” tushunchasiga aniqlik kiritishda bir qator munozarali holatlar majud. Jumladan:

Huquq nazariyasida “ huquqbuzarlik” deganda jamiyat uchun xavfli bo'lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik), boshqa manbada esa huquqbuzarlikka jamiyatda o'rnatilgan va qonun asosida belgilangan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalarini buzish sifatida ta'rif berilgan. Ushbu ta'riflardan kelib chiqqan holda huquqbuzarliklar ijtimoiy xavfi va uni sodir etganlik uchun javobgarlikni belgilovchi huquq sohasiga asosan: A) Fuqaroviy; B) Intizomiy; D) Ma'muriy; E) Jinoiy; turlarga ajratiladi;

Olib borilgan kuzatishlar hamda o'tkazilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, amaliyotda “ huquqbuzarlik “ tushunchasini turlicha talqin etish uchrab turibdi. Amaliyot organlarida faoliyat yuritayotgan profilaktika inspektorlarining aksariyati huquqbuzarlik deganda ma'muriy huquqbuzarlikni nazarda tutishadi. Xususan, o'tkazilgan so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 65%i ma'muriy huquqbuzarlik deb belgilashgani fikrimizning isbotidir;

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunining 3-moddasida:

“Huquqbuzarlik – sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)” deb ta'rif berilgan.

Professor X.T.Odilqoriyev huquqbuzarlikni “ huquq subyektining aybli, huquqqa zid, jamiyat, davlat va shaxs manfaatlariga zarar yetkazuvchi, yuridik javobgarlik keltirib chiqaruvchi qilmish” sifatida ta'riflashi bilan birga, uning ijtimoiy xavflilik belgisiga e'tibor qaratadi. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari faoliyatini, boshqarish va muvofiqlashtirish samarali tashkil etish mazkur faoliyatni rejalashtirishga bog'liq jarayon hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatining yagona sxemasini ifodalashning zarur sharti bu – rejalashtirish hisolanadi. Unga ko'ra, rejalashtirish doimo jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini bajarishning asosiy usullaridan biri bo'lgan. Rejalashtirishning huquqiy tartibni mustahkamlash sohasiga ijtimoiy boshqaruvning boshqa sohalariga nisbatan kechroq kirib kelishini, aftidan, jinoyatchilikni bartaraf etish jarayoni ilgari taxmin qilinganidan murakkabroq va davomliroq chiqqanligi bilan izohlash mumkin. Profilaktika inspektori faoliyatini rejalashtirishda huquqbuzarliklar profilaktikasi turlari, ularning huquq-tartibotni saqlash choralari tizimidagi va ijtimoiy

boshqaruvdagi o`rni, mazmuni, ularni amalga oshiruvchi tuzilmani tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning ahamiyati va o`zaro aloqadorligi, profilaktika xizmati faoliyatini axborot bilan ta`minlash, rejalashtirishni, huquqiy, tashkiliy-taktik, uslubiy, moddiy-texnik ta`minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rejalashtirish haqida bir qator yuridik va maxsus adabiyotlarda turli soha vakillari tomonidan turlicha tushuncha, fikr va mulohazalar bildirib o`tilgan. Xususan, kriminolog olim G.A.Avanesovning fikricha “Rejalashtirish – muayyan ketma ketlikdagi o`zaro aloqador topshiriqlarni ishlab chiqish, tadbirlarni bajarish tartibi va muddatlarini belgilash” dir.

“ Rejalashtirish – boshqaruv tizimi rivojlanishining umumiy nazariyasini ishlab chiqish, muayyan topshiriqlarni, maqsadlarni amalga oshirishning muddatlari, ya`ni istiqbolga mo`ljallangan harakat(tadbir)lar dasturining asoslanishidir”. Profilaktika inspektorlari faoliyatini rejalashtirishda axborot manbalarining o`zaro axborot al,ashishi jamoat tartibini saqlash vca fuqarolar xavfsizligini ta`minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, aholiga ijtimoiy-huquqiy yordam ko`rsatishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlarni rejalashtirish va ushbu rejalarning ijrosini ta`minlashga xizmat qiladi. Ayrim olimlar rejalashtirishda ko`zlangan faoliyatning normativ-axborot, tashkiliy, metodik va moddiy ta`minoti ham nazarda tutilishi lozim deb hisoblashadi. Boshqaruv jarayonining umumiy funksiyasi bo`lgan rejalashtirish deganda, boshqaruv subyekting ijtimoiy tizimlarning kelgusi davrdagi faoliyatiga mo`ljallangan maqsad va vazifalarini, ularga erishish usul va vositalarini, shuningdek ularni hal qilish ketma-ketligi va bajarish muddatlarini belgilash tushuniladi. Ichki ishlar organlari profilaktika xizmati faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarishning asosiy vositasi rejalashtirish hisoblanadi. Reja boshqaruv qarorining o`ziga xos turi bo`lib, uni tuzish boshqaruv jarayonining boshlang`ich bosqichi hisoblanadi.

Profilaktika xizmati faoliyatini keng miqyosda rejalashtirishda rejalarni tizimli ishlab chiqish va uni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rejalashtirishda kuchlar va vaqtdan ratsional hamda maqsadga yo`naltirilgan holda foydalanish imkoniyatini, shuningdek ijro intizomini ta`minlaydi. Profilaktika xizmati faoliyatida rejalarni tuzishda uning o`ziga xos jihati, mazmun-mohiyati va xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Bu mazmun alohida qarorlarning o`zaro bog`liq majmuini, ularning bayon etilishidagi o`ziga xos shaklni, shuningdek uni ishlab chiqish va qabul qilish tartibining aniq belgilanganligini hamda uni ishlab chiqishning o`ziga xos usullari qo`llanilishini o`z ichiga oladi.

Rejada rofilaktika xizmati faoliyatini kelgusi davrga (yoki muayyan tadbir bo`yicha) mo`ljallangan maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun bajarishi lozim bo`lgan tadbirlar, ularni bajarish ketma-ketligi, muddatlari, ijrochilar hamda rejalashtirilgan tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish usullari aks etishi shart. Mazkur faoliyatni amalga oshirishda ma`muriy hududlarda xizmat olib boruvchi

profilaktika (kata) inspektorlarining oldiga aniq topshiriq va vazifalar belgilab beriladi. Ta`kidlash kerakki, barcha davlat hokimiyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati singari ichki ishlar idoralari faoliyatining o`ziga xos xususiyati uning qat`iy rejalashtirishga asoslanishidadir.

Ichki ishlar idoralarining faoliyatini rejalashtirish O`zbekiston Respublikasi IIVning 1996-yil 24-iyundagi “ O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar idoralarida axborot-tahlil ishini rejalashtirishni va axborot-ma`lumot fondini tashkil etish to`g`risida” gi va O`zbekiston Respublikasi IIVning 2017-yil 23-maydagi “ Ichki ishlar organlarida axborot-tahlil va rejalashtirish faoliyatini amalga oshirish tartibi to`g`risida 80-sonli buyrug`I talablari asosida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda ichki ishlar idoralari profilaktika xizmati faoliyatini rejalashtirishning barcha asosiy yo`nalishlarini tashkiliy jihatdan ta`minlashga imkon beruvchi ancha izchil tizimi mavjud.

Bugungi kunda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni hamda inson huquq va erkinliklarini ta`minlash, jamiyat, davlat va shaxsning qonuniy manfaatlarini har qanday ko`rinishdagi tahdidlardan himoya qilish, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, millatlararo totuvlikni hamda barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir. “ O`zbekistonimizda tinchlik-osoyishtalik va xavfsizlikni fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko`z qorachig`idek saqlash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo`lib qolishi darkor ”

O`zbekistonda shakllangan huquqbuzarliklar profilaktikasi milliy tizimi, ya`ni huquqbuzarliklar profilaktikasi siyosatiga, uning mazmun-mohiyatini o`zida aks ettiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, ularning hayotda amalga oshirilishi va qo`llanilishini ta`minlovchi organ va muassasalar faoliyatiga bevosita o`zbek xalqining yuksak ma`naviyatini o`zida aks ettiruvchi insoniy tuyg`ular, buyuk ajdodlar meroslari, oila qadriyatlarini haqidagi g`oyalar singdirilgan.

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalashtirish “ – tushunchasini yoritishimizdan avval biz, profilaktika, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi kabi tushunchalarni, huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy vazifalarini hamda huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatini huquqbuzarliklar profilaktikasini obyektlarini aniqlab olishimiz lozim. Chunki ushbu iboralar nafaqat huquq nazariyasi va amaliyotida, balki boshqa fan sohalarida ham qo`llaniladi. “Huquqbuzarlik” tushunchasiga aniqlik kiritishda bir qator munozarali holatlar majud. Jumladan:

Huquq nazariyasida “ huquqbuzarlik” deganda jamiyat uchun xavfli bo`lgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik), boshqa manbada esa huquqbuzarlikka jamiyatda o`rnatilgan va qonun asosida belgilangan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalarini buzish sifatida ta`rif berilgan. Ushbu ta`riflardan kelib chiqqan holda huquqbuzarliklar ijtimoiy xavfi va uni sodir etganlik uchun javobgarlikni belgilovchi huquq sohasiga asosan: A) Fuqaroviy; B) Intizomiy; D) Ma`muriy; E) Jinoiy; turlarga ajratiladi;

Olib borilgan kuzatishlar hamda o'tkazilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, amaliyotda " huquqbuzarlik " tushunchasini turlicha talqin etish uchrab turibdi. Amaliyot organlarida faoliyat yuritayotgan profilaktika inspektorlarining aksariyati huquqbuzarlik deganda ma'muriy huquqbuzarlikni nazarda tutishadi. Xususan, o'tkazilgan so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 65%i ma'muriy huquqbuzarlik deb belgilashgani fikrimizning isbotidir;

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida:

"Huquqbuzarlik – sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)" deb ta'rif berilgan.

Professor X.T.Odilqoriyev huquqbuzarlikni " huquq subyekting aybli, huquqqa zid, jamiyat, davlat va shaxs manfaatlariga zarar yetkazuvchi, yuridik javobgarlik keltirib chiqaruvchi qilmish" sifatida ta'riflashi bilan birga, uning ijtimoiy xavflilik belgisiga e'tibor qaratadi. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari faoliyatini, boshqarish va muvofiqlashtirish samarali tashkil etish mazkur faoliyatni rejalashtirishga bog'liq jarayon hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatining yagona sxemasini ifodalashning zarur sharti bu – rejalashtirish hisolanadi. Unga ko'ra, rejalashtirish doimo jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini bajarishning asosiy usullaridan biri bo'lgan. Rejalashtirishning huquqiy tartibni mustahkamlash sohasiga ijtimoiy boshqaruvning boshqa sohalariga nisbatan kechroq kirib kelishini, aftidan, jinoyatchilikni bartaraf etish jarayoni ilgari taxmin qilinganidan murakkabroq va davomliroq chiqqanligi bilan izohlash mumkin. Profilaktika inspektori faoliyatini rejalashtirishda huquqbuzarliklar profilaktikasi turlari, ularning huquq-tartibotni saqlash choralari tizimidagi va ijtimoiy boshqaruvdagi o'zni, mazmuni, ularni amalga oshiruvchi tuzilmani tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning ahamiyati va o'zaro aloqadorligi, profilaktika xizmati faoliyatini axborot bilan ta'minlash, rejalashtirishni, huquqiy, tashkiliy-taktik, uslubiy, moddiy-texnik ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rejalashtirish haqida bir qator yuridik va maxsus adabiyotlarda turli soha vakillari tomonidan turlicha tushuncha, fikr va mulohazalar bildirib o'tilgan. Xususan, kriminolog olim G.A.Avanesovning fikricha "Rejalashtirish – muayyan ketma ketlikdagi o'zaro aloqador topshiriqlarni ishlab chiqish, tadbirlarni bajarish tartibi va muddatlarini belgilash" dir.

" Rejalashtirish – boshqaruv tizimi rivojlanishining umumiy nazariyasini ishlab chiqish, muayyan topshiriqlarni, maqsadlarni amalga oshirishning muddatlari, ya'ni istiqbolga mo'ljallangan harakat(tadbir)lar dasturining asoslanishidir". Profilaktika inspektorlari faoliyatini rejalashtirishda axborot manbalarining o'zaro axborot al,ashishi jamoat tartibini saqlash vca fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning

huquq va erkinliklarini himoya qilish, aholiga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlarni rejalashtirish va ushbu rejalarning ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayrim olimlar rejalashtirishda ko'zlangan faoliyatning normativ-axborot, tashkiliy, metodik va moddiy ta'minoti ham nazarda tutilishi lozim deb hisoblashadi. Boshqaruv jarayonining umumiy funksiyasi bo'lgan rejalashtirish deganda, boshqaruv subyektining ijtimoiy tizimlarning kelgusi davrdagi faoliyatiga mo'ljallangan maqsad va vazifalarini, ularga erishish usul va vositalarini, shuningdek ularni hal qilish ketma-ketligi va bajarish muddatlarini belgilash tushuniladi. Ichki ishlar organlari profilaktika xizmati faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarishning asosiy vositasi rejalashtirish hisoblanadi. Reja boshqaruv qarorining o'ziga xos turi bo'lib, uni tuzish boshqaruv jarayonining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.

Profilaktika xizmati faoliyatini keng miqyosda rejalashtirishda rejalarni tizimli ishlab chiqish va uni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rejalashtirishda kuchlar va vaqtdan ratsional hamda maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish imkoniyatini, shuningdek ijro intizomini ta'minlaydi. Profilaktika xizmati faoliyatida rejalarni tuzishda uning o'ziga xos jihati, mazmun-mohiyati va xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Bu mazmun alohida qarorlarning o'zaro bog'liq majmuini, ularning bayon etilishidagi o'ziga xos shaklni, shuningdek uni ishlab chiqish va qabul qilish tartibining aniq belgilanganligini hamda uni ishlab chiqishning o'ziga xos usullari qo'llanilishini o'z ichiga oladi.

Rejada rofilaktika xizmati faoliyatini kelgusi davrga (yoki muayyan tadbir bo'yicha) mo'ljallangan maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun bajarishi lozim bo'lgan tadbirlar, ularni bajarish ketma-ketligi, muddatlari, ijrochilar hamda rejalashtirilgan tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish usullari aks etishi shart. Mazkur faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy hududlarda xizmat olib boruvchi profilaktika (kata) inspektorlarining oldiga aniq topshiriq va vazifalar belgilab beriladi. Ta'kidlash kerakki, barcha davlat hokimiyati va huquni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati singari ichki ishlar idoralari faoliyatining o'ziga xos xususiyati uning qat'iy rejalashtirishga asoslanishidadir.

Ichki ishlar idoralari faoliyatini rejalashtirish O'zbekiston Respublikasi IIVning 1996-yil 24-iyundagi " O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar idoralarida axborot-tahlil ishini rejalashtirishni va axborot-ma'lumot fondini tashkil etish to'g'risida" gi va O'zbekiston Respublikasi IIVning 2017-yil 23-maydagi " Ichki ishlar organlarida axborot-tahlil va rejalashtirish faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida 80-sonli buyrug'I talablari asosida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda ichki ishlar idoralari profilaktika xizmati faoliyatini rejalashtirishning barcha asosiy yo'nalishlarini tashkiliy jihatdan ta'minlashga imkon beruvchi ancha izchil tizimi mavjud.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 21.10. 2016 yil

2. Yangi O'zbekiston gazetasi elektron Manbaa:
<https://yuz.uz/uz/news/jamoatxavfsizligini-taminlashda-profilatika-inspektorining-rol-i-qanday>

3. O'zbekiston Respublikasi IIVning rasmiy veb sayti elektron Manbaa:
<https://iiv.uz/news/profilaktika-inspektorlarining-faoliyati-bilan--bogliq>